

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
QARORI**

**RESPUBLIKA OLIY TA'LIM VA ILMUY-TADQIQOT MUASSASALARI  
XODIMLARINING MEHNATIGA HAQ TO'LASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH  
CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lismizini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli **qarori** ijrosini ta'minlash, shuningdek, oliy ta'lismiz va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida:

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lismiz vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2018-yil 1-sentabrdan boshlab bazaviy lavozim maoshlari miqdorlarini tabaqlashtirilgan holda:

oliy ta'lismiz muassasalari rahbar xodimlari va professor-o'qituvchilarining — o'rtacha 25 foizga va stajer-o'qituvchi hamda fan doktori ilmiy darajasiga ega professor ish haqining miqdorlari o'rtasidagi tafovutni ikki baravargacha oshirish;

ilmiy-tadqiqot muassasalarining fundamental, amaliy tadqiqotlar ilmiy-texnik dasturlarini amalga oshirish va innovatsiya ishlarida ishtirok etayotgan ilmiy xodimlarining — o'rtacha 25 foizga va stajer-tadqiqotchi hamda fan doktori ilmiy darajasiga va professor ilmiy unvoniga ega bosh ilmiy xodim ish haqining miqdorlari o'rtasidagi tafovutni ikki baravargacha oshirish to'g'risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. Belgilab qo'yilsinki, 2018-yil 1-sentabrdan boshlab:

bazaviy doktoranturada ta'lismiz olayotgan shaxslarga — ilmiy unvon yoki ilmiy darajaga ega bo'lmagan (2 yilgacha ilmiy faoliyat tajribasiga ega bo'lgan) kichik ilmiy xodimning lavozim maoshi bazaviy miqdorlariga tenglashtirilgan stipendiyalar;

doktoranturada ta'lismiz olayotgan shaxslarga — fan nomzodi (yoki falsafa doktori (PhD) darajasiga va xorijiy davlatlarning tegishli mutaxassislik bo'yicha unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) ilmiy darjasiga yoki ilmiy unvonga ega bo'lgan yetakchi ilmiy xodimning lavozim maoshi bazaviy miqdorlariga tenglashtirilgan stipendiyalar to'lanadi.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2018-yil 1-iyulgacha:

oliy ta'lismiz muassasalarining rahbar xodimlari va professor-o'qituvchilarini, shuningdek, boshqa xodimlari mehnatiga haq to'lash bo'yicha bazaviy lavozim maoshlarini;

ilmiy-tadqiqot muassasalarining fundamental, amaliy tadqiqotlar ilmiy-texnik dasturlari loyihibarini amalga oshirish va innovatsiya ishlarida ishtirok etayotgan ilmiy hamda rahbar xodimlarning bazaviy lavozim maoshlarini ushbu qaror talablaridan kelib chiqqan holda budget mablag'lari hisobidan qayta ko'rib chiqsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Oliy va o'rta maxsus ta'lismiz vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar Akademiyasi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ushbu qarorda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirilishini ta'minlasin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinosi — Moliya vaziri J.A. Qo'chqorov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2018-yil 5-aprel,  
PQ-3655-son

*(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 06.04.2018-y., 07/18/3655/1019-son)*